Dilfuza Islomovna Mamurova

Shaxrizoda Ravshanova

Buxoro davlat pedagogika instituti

UY RO'ZG'OR BUYUMLARIDAN VA MEVA SABZAVOTLARDAN TASHKIL TOPGAN NATUYRMORTNI BAJARISH METODIKASI

Annatasiya: Qo'yilgan natyurmortning asosiy g'oyasini surat tekisligida tasvirlab berish uchun, ya'ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari bo'lgan kompozitsiya, perespektiva, yorug'-soya va rangshunoslik nazariyalarini puxta bilish va ularni amalda qo'llay olish talab qilinadi.

Kalit so'zlar: Natyurmort, surat tekisligi, tasvir, natura, tasviriy san'at, kompozitsiya, perespektiva, yorug'-soya, dars.

Avvalo, qo'yilgan natyurmortni diqqat bilan kuzatib, uni tahlil qilib olinadi. Kompozisiyani ijodiy masalalari, asosan postanovka (natyurmort tuzish) qo'yish vaqtida hal yetilgan bo'ladi ya'ni natyurmort qismlari o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lib, hamma narsa birgalikda, yaxlit bo'lib ko'zga yaqqol tashlanib turmog'i lozim.

Lekin , unga har xil nuqtalardan qaraganda umumiy ko'rinishi ham, qismlarning o'lchamlari va nisbatlari ham o'zgarib boshqacharoq ko'rinib qolganini sezamiz. Demak, natyurmort tasvirining ta'sirchan bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadga to'la yerishish uchun qo'yilgan natyurmortga nisbatan yeng qulay va qiziqarli ko'rish nuqtasini topish kerak. Buning uchun har hil joyga o'tirib yoki turib, naturaga yaqinlashib yoki uzoqlashib qarab ko'rish kerak bo'ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko'zlarning balandligi o'zgarishi bilan birga ufq chizig'i va ko'rish markazi o'zgarib turadi. Qo'yilgan natyurmortga nisbatan yeng yaxshi ko'rish nuqtasini topib, ufq chizig'ini shunga muvofiq belgilab olish muhim ish bo'lib, tasvirning umumiy kompozisiyasi ko'p jixatdan unga bog'liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida

to‘g‘ri joylashtirish bir qator masalalarni hal yetishni talab qiladi. Shuning uchun ishni boshlashdan oldin bir necha hajmli xomaki rasm bajarib ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Tasvirni qog‘oz yuzasida to‘g‘ri joylashtirish masalasi hal bo‘lgan har qanday tasviriy san’at asarining poydevori bo‘lgan chiziqli rasmni boshlasa bo‘ladi. Qo‘yilgan natyurmortning umumiy holati, prinsiplari aniqlangach, qog‘oz yuzasida uning umumiy o‘lchamlari yengilligi va balandligi yengil-yelpi chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Har bir narsaning umumiy shakli qismlarning nisbiy o‘lchamlari va va predmetlarning asoslari orasidagi masofalar ham ohista chiziladi. Bu ishlar qalamni qog‘oz yuzasida tez-tez yurg‘azib, natyurmort bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o‘zicha shakli, kata-kichikligi, tutgan o‘rni aniq bo‘lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar kuzatiladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli rasm ishlashda g‘oyat ma’suliyatli bosqichdir, chunki u rasm ishlovidan mantiiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab yetadi.

Predmetlarning surat teksligida joylashtirish vaqtida, albatta ularning asoslarini to‘la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi predmetning o‘rnini va alohida narsalar o‘rtasida qolgan masofani to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Shunday qilinganda ba’zi narsalarning “muallaq” bo‘lib qolishi yoki bir narsaning ikkinchisiga o‘yib kirgandek tuyulib qolishiga yo’l qo‘ymaydi.

Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan tiniq deb faraz qilib, uning ko‘zga yaqqol ko‘rinmaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga ularning shakllarini yanada aniqroq bo‘lishiga yerishishning yana bir yo’li yirik shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarni qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta’kidlash va shakllarini aniqroq tasvirlashga olib keladi.

Natyurmortdagi narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda perspektiva va yorug‘-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo‘llash yuzasidan ma’lum ishlar olib borish kerak bo‘ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarning chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug‘ soya, siyrak soyalari birma-bir ranglar yordamida ishlab chiqishga o‘tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialni haqqoniy qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi soya, yarim soya va reflekslarning nisbiy munosibligiga yerishishga harakat qilish kerak.

Buning uchun yesa natyurmortdagi yeng to‘q soya yorug‘ yerlarni aniqlab olib ana shu yeng to‘q soyadan boshlash lozim. Ana shu paytda natyurmort rangiga xos umumiy och to‘qlikni to‘g‘ri aniqlash g‘oyatda muhim. Buning uchun natyurmort yoniga bironta qop-qora narsa qo‘yib qaralsa, yeng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo‘lib ko‘rinadi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo‘lganda, qoralashni o‘shandan boshlash va qora qalamni bor imkoniyatidan foydalanish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Khodjayeva, Nodira Sharifovna, and Ahrorbek Tolibjon oglu Eshondedayev. "Computer Automated Drawing and Design." *Spanish Journal of Innovation and Integrity* 4 (2022): 117-120.
2. Omonov, D. E. "Integration of fine arts and computer technologies in art education of students." *Middle European Scientific Bulletin* 17 (2021): 225-227.
3. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 4
4. Xakimova, G. A. (2022). IPAKNI TABIIY RANGLARGA BO’YASH TEXNOLOGIYASI. *ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI*, *1*, 176-179.

5. Сулаймонова, Мухиба Болтаевна, et al. "ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ." European science 3 (59) (2021): 53-56.
6. Khakimova G. A. The Beauty is in Each Letter //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 189-191.
7. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Information Technology in Education. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, *1*(1), 17-22.
8. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
9. Сулаймонова, М. (2021). Великий сын узбекского народа, мыслитель-гуманист, несравненный мастер слова Низамуддин Мир Алишер Навои. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *3*(3).
10. Avliyakulov, M. M., Rafieva, N. A., & Shodieva, S. B. (2022). Methods of organizing independent work of students. *Journal of Positive School Psychology*, 8721-8727.
11. Magdiyeva, M. E., Dildora, S., & Sayyora, S. (2022, October). Hunarmandchilik Asosida Xotin-Qizlarni Kasbiy-Amaliy Kompetentligini Rivojlantirishninng Ijtimoiy Pedagogik Zaruriyatlari. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 8-10).
12. Muzafarovna, A. N., Umidullayevna, S. S., & Ilhamovna, I. (2020). Harmonization of types of fabric art processing to students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, *24*(4), 176-184.
13. Botirov, Jahongir Sobirovich, et al. "The same goes for art classes in private schools specific properties." *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol* 27.2 (2021).

14. Остонова Г. Р. и др. Дидактические принципы обучения изобразительному искусству в общеобразовательных школах //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 104-106.
15. Абдуллаев С. С., Рафиева Н. А. Искусства древней Руси и средней Азии в духовном диалоге (исторический экскурс) //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 101-104.
16. Абдуллаев С. С. и др. ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 384-386.
17. Бадиев М. М. СТАЛАКТИТЫ В АРХИТЕКТУРЕ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Academy. – 2020. – №. 11 (62). – С. 53-55.
18. Бадиев М. М. Методика обучения древнеегипетского чертежа в Узбекистане //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 840-846.
19. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
20. Aminov A. S., Shukurov A. R., Mamurova D. I. Problems Of Developing The Most Important Didactic Tool For Activating The Learning Process Of Students In The Educational Process //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 156-159.
21. Aminov A. S., Mamurova D. I., Shukurov A. R. Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance //E-Conference globe. – 2021. – С. 34-37.
22. Umedullaevna S. S. Problems of Computer Technology Integration With Drawing //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 9.

23. Ibadullaeva S. I. The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 130-133.
24. Sulaymonova M. Improving the Methodology of Teaching Fine Arts with the Help of Collaboration Technology //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 117-123.
25. Ибадуллаева Ш. И., Амонова Р. Ж. К. Коммуникативные Основы Художественной Культуры //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 28. – С. 169-173.
26. Shodiyeva S. B. THE OLDEST FINE AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 292-295.
27. Esonovich O. D. Spiritual values and their importance in human development.
28. Omonov D. A. O. G. L. Tasviriy san'at yo 'nalishi talabalarini axborot texnologiyalari orqali o'qitish usullari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10-2. – С. 36-40.
29. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 100-103).
30. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
31. Mamurova, F. I., & oglu Akmalov, J. O. (2021). ORGANIZATION OF GEODESIC WORK. STATE GEODESIC NETWORKS. *Conferencious Online*, 21-23.
32. Salixova, Z. A. "Creasing the reading competence of future teachers." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.3 (2022): 690-692.